**Key words:** population, social, social protection, poverty, property, entrepreneurship, income inequality, gender equality.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается опыт зарубежных стран в сокращении бедности и развитии экономики. Основное внимание уделяется опыту Швеции, Китая, Южной Кореи, Малайзии и Финляндии.

**Ключевые слова:** население, социальная система, социальная защита, бедность, собственность, предпринимательство, неравенство доходов, гендерное равенство.

## KIRISH

Bugungi kunda kambag'allikka qarshi kurash mamlakatimizda o'ta dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Chunki jamiyatimizda Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, aholi faqat ertangi kunini umid qilib emas, balki bugun davlatdan rozi bo'lib, baxtli yashashi kerakligini uqtirmoqda. Agar odam kambag'al oilaga mansub bo'lsa, farzandi mutaxassislik bo'yicha ta'lim olish imkoniyatidan mahrum bo'lib qolishi mumkin, chunki bunday o'qishlarning aksariyat qismi pullik bo'lib, kontrakt asosida amalga oshiriladi. Ushbu holat uning kelajakdagi daromadlari darajasiga ham salbiy ta'sir etadi. Chunki malakali mehnat bilan malakasiz mehnatning o'rtasidagi "topish-tutinishi" turli darajada bo'ladi. Bunday aholi qatlami nafaqat aholining o'ziga, balki jamiyatga ham zarar.

Mamlakatda kambag'allikni qisqartirish siyosati keng qamrovli bo'lishi zarur. Shuningdek, kambag'allikni qisqartirishda iqtisodiy va ijtimoiy kambag'allikni farqlash lozim bo'ladi. Iqtisodiy kambag'allikni bartaraf etish uchun davlat tomonidan iqtisodiy chora tadbirlarni qo'llash orqali qisqartirish mumkin. Ijtimoiy kambag'allikni qisqartirish uchun esa, aholining daromadlarni qayta taqsimlash imkoniyatiga asoslangan mantiqqa ega bo'lishi lozim.

Hozirgi kunda Yangi O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining muvofaqiyatli amalga oshirish uchun "UMPR" (Uzbek Model for Poverty Reduction, Kambag'allikni qisqartirishning O'zbek modeli) dasturi xorij tajribalari asosida o'rgangan holda uni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Ushbu dasturda uchta asosiy yo'nalishda kompleks chora-tadbirlar amalga oshirish lozim bo'ladi <sup>[1]</sup>:

1. Mamlakatda kambag'allikni yanada kengayib ketishini oldini olish uchun aholi orasida kambag'allikni profilaktika qiluvchi ishlarini olib borish.
2. Mehnatga layoqatli fuqarolarning mehnat munosabatlarida teng huquqlilik tamoyili asosida ishtirok etish imkoniyatlarini mustahkamlash.
3. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj va ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash tizimini doim takomillashtirib borish.

Sanab o'tilgan ushbu vazifalarni bajarilishini ta'minlash uchun davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatining umumiy yo'nalishi nuqtayi nazaridan amalga oshirilishi lozim bo'ladi. "UMPR" modelida O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarda yetakchi rolni profilaktika ishlari egallashi zarur.



Kambag'allikning profilaktikasini amalga oshirish birinchidan, mamlakat iqtisodiyotni barqarorlashtirish va o'sish uchun qulay bo'lgan makroiqtisodiy va tarmoq siyosatini amalga oshirish imkonini bersa, ikkinchidan, hududiy va mahalliy darajada qabul qilingan iqtisodiy va ijtimoiy qarorlarni aholi daromadlari dinamikasiga ta'sirini aniqlash va ushbu qarorlarni amalga oshirishda aholi daromadlarini tushishiga olib kelgan hollarda qarorlarga zarur tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Ochlik siyosiy iqtisodiyoti" asari uchun iqtisod bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan Amartya Senning fikricha, kambag'allik tovarlar miqdori (moddiy ne'matlar) bilan bog'liq emasligini ko'rsatadi, lekin odamlarning bu moddiy ne'matlarni olish uchun ijtimoiy shartlangan imkoniyatlari bilan belgilanadi [2].

A.Smit fikricha, kambag'allik yashash vositalarining yo'qligi uncha katta achinishni tug'dirmaydi. Kambag'allikning yuzaga kelishi natijasida mamlakatda iqtisodiy muammolar kengaya boradi aholidan norozichilik kayfiyati uyg'onib, malakat ijtimoiy jamoalarning ajralishiga olib keladi [3].

Ijtimoiy tengsizlik va ijtimoiy tabaqalanish tabiatini chuqur tadqiq etgan K.Marks jamiyatdagi turli tabaqalarga ajralishning sababi-jamiyatni ishlab chiqarish vositalari egalari va faqat o'z mehnatini sotishi mumkin bo'lganlarga bo'linishidir. Kambag'allikning sabablarini tadqiq etib, K.Marks kapitalning to'planishi bir qutbda bo'ylilik, ikkinchi qutbda esa kambag'allikni vujudga keltirib, turli ko'rinishlarni oluvchi va kapitalga ishlab chiqarishni o'ta tezlik bilan kengaytirish imkonini beruvchi "zaxira ishchi armiyasini", ishchilarning "nisbiy ortiqchaligini" yoki "kapitalistik aholi o'sib ketishini" vujudga keltiradi deb keltirgan [4].

S.Fan kambag'allikning ko'payishi davom etar ekan, taraqqiyot sekinlashadi va dunyoning turli burchaklarida notekis iqtisodiy vaziyatlar yuzaga keladi. Xitoyda kambag'allikdan chiqish maqsadida har bir fuqaroga bilim va erkinlikni ta'minlash uchun tadqiqotlar olib borgan va kambag'allikdan chiqish yo'llaridan barcha aholini xabardor qilishni muhim deb hisoblagan. Shu munosabat bilan faqatgina qishloq xo'jaligiga e'tibor qaratgan holda xalqaro tajribalar va kambag'allikdan chiqishning turli yo'llarini hisobga olish yetarli emasligini ko'rsatib bergan [5].

P.Moisio va boshqalar maqolasida 1993–2013-yillarda Finlyandiyada kambag'allik xavfi darajasining oshishiga soliq va imtiyozlardagi o'zgarishlarning ta'sirini baholash uchun kambag'allikda soliq stavkalarini tahlil qilganlar. Uy xo'jaliklarining bir martalik daromadlar haqida ma'lumotlardan foydalangan holda simulyatsiya yaratganlar va 1993–2013-yillar uchun yillik soliq va imtiyozlar masalasini ko'rib chiqishni taklif qilganlar. 1990-yillardagi depressiyadan keyin nafaqalarni qisqartirish kambag'allikka juda kam ta'sir ko'rsatganini, ammo soliqdagi o'zgarishlar ancha katta ta'sir ko'rsatganini isbotladilar [6].

J.S.Lee va J.K.Choi lar Koreya farovonligi paneli tadqiqotidan milliy vakillik namunasi ma'lumotlar to'plamidan foydalanib, topilgan daromad manbalarining kambag'allikka qarshi ta'sirini ko'rib chiqadilar. Ular bir kishi uy xo'jaliklarida, daromad topishi mos ravishda, 84,8% kambag'allik darajasidan 55,9% ga tushganini ko'rsatadi. Daromad topishdan oldin, uy xo'jaliklari ishsizlarga nisbatan kambag'al bo'lish ehtimoli 1,94 baravar ko'p ekanligini ko'rsatadi [7].

M.N.Asadullah va boshqalar maqolasida kambag'allikning mintaqaviy farqlarini tanqidiy ko'rib chiqib, kambag'allikni kamaytirishda Malayziya siyosiy iqtisod omillariga e'tibor qaratishi lozimligini aniqladi. Ular 1970–2019-yillarda g'arbiy Malayziya va Sharqiy Malayziyaning ikki shtati–Sabah va Saravak o'rtasida daromad kambag'alligining Sharqiy–G'arbiy mintaqaviy bo'linishiga e'tibor qaratishgan. 1970–1990-yillarda Malayziya yangi iqtisodiy siyosat (NEP), shubhasiz dunyodagi eng uzoq va eng ambitsiyali irqqa asoslangan ijobiy harakatlar dasturi sifatida ko'rildi. Shu nuqtayi nazardan, uning ijobiy harakat siyosati mintaqaviy bo'shliqlarni yopishga muvaffaq bo'lganligini o'rganishdi[8].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotimizda mamlakatimizda kambag'allik darajasi qisqartirishga qaratilgan amaliy ishlar olib borilishining analitik tahlillari, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha xorij tajribalarining qiyosiy tahlili, aholini iqtisodiy ahvolini yaxshilashga qaratilgan vazifalarning bajarilishi va xorij tajribalarni o'rgangan holda ularni Mamlakatimizda qo'llashning imkoniyatlari analitik tahlillar yordamida o'rganildi. Tadqiqot obyekti sifatida xorij mamlakatlarda aholi kambag'alligini qisqartirish dasturlari o'rganildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish asosida mazkur davlatlarda kambag'allik darajasini kamaytirish uchun turli modellardan foydalanish amaliyotini tadqiq qilish lozim. Shvetsiya davlati bu borada o'ziga xos tizim yaratganki, unda to'liq bandlik va daromadlar tengsizligini kamaytirish modeli qo'llanilib, ishsizlarni o'qitish va qayta tayyorlash, zamonaviy talab yuqori bo'lgan sohalarda ishlash qobiliyatini tiklash belgilangan.



Kambag'allik toifasiga tushib qolgan aholini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida moddiy nafaqadan tashqari mahsulotlar va pul ko'rinishidagi qo'shimcha yordamlar ajratilishi Chexiya davlatidagi o'ziga xos tizim ekanligini ko'rsatadi.

Jahon bankinging ma'lumotlariga ko'ra<sup>9</sup>, Xitoyning "Bir yo'l-bir makon" tashabbusi bilan 7,6 mln. kishi o'ta qashshoklikdan qutulishi, 32 million kishi esa turmush darajasini yaxshilash va kambag'allikka barham berish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga Xitoy iqtisodiyoti islohotlar va ochiqlik siyosatini yo'lga qo'ygach, boshidanoq va keyingi 40 yil mobaynida o'sish darajasining yuqori sur'atini saqlay bildi. Bu esa mamlakat aholisi turmush tarzini yaxshilash uchun mahkam poydevor bo'lib xizmat qildi. Xitoy "bira to'la hammani" boyitishga intilgani yo'q, balki izchil ravishda bosqichma-bosqich rivojlanishni nazarda tutgan maxsus model ishlab chiqdi. Xitoyda qishloq xo'jaligini, shu jumladan, qishloq hududlarini rivojlantirish va yer islohotlariga qaratilgan keng ko'lami chora-tadbirlar amalga oshirilishi, ayniqsa, qishloqlarda kambag'allikni yengishga yordam berdi.

Jahonning barcha rivojlangan mamlakatlarida kambag'allikni qisqartirish, aholining turmush darajasi, hayot tarzini oshirish har bir davlatning ijtimoiy – siyosiy yo'nalishlarida asosiy o'rinni egallaydi. Bu borada xalqaro tashkilotlar kambag'allikni qisqartirish, insonlar yashash darajasini yanada yaxshilash, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar va istiqboldagi rejalarni bajarishga alohida e'tibor qaratilgani bilan ahamiyatlidir. BMT tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari bizning mamlakatimizda ham amalga oshirishini o'z zimmasiga olganligini ta'kidlash lozim. Ushbu maqsadlarga erishish, shubhasiz, iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi, bu esa, o'z navbatida, mamlakatdagi kambag'allik darajasini bosqichma-bosqich kamaytirishga olib keladi. Bu borada Xitoy Xalq Respublikasi, Singapur, Malayziya va boshqa davlatlarning tajribasini o'rganish maqsadga muvofiq.

XXR keyingi sakkiz yil ichida mutlaq kambag'allikka qarshi kurashish uchun 1,6 trillion yuan (taxminan 246 milliard dollar) miqdorida mablag' sarfladi. Buning natijasida hatto eng kambag'al hududlarda yashovchi 90 mln.dan ortiq kishilar kambag'allikdan qutuldi va turumush darajasi o'rtacha hududlar ro'yxatiga kiritildi. Mazkur tajribaga asosan, Xitoy hukumati, muvaffaqiyatli va boy bo'lgan sharqiy hududlar va kamroq taraqqiy topgan g'arbiy hududlar kadrlari o'rtasida tajriba almashish uchun o'ziga xos tizimni amaliyotda sinab ko'rdi. Davlat rahbari Si Zinpin 2021-yilda mamlakatda o'rtacha farovon jamiyat qurish va o'ta kambag'allikka barham berish borasidagi maqsad to'liq amalga oshirilganligini ko'rsatib berdi, natijada 2020 yilda Xitoy rivojlangan davlatlar orasida mutlaq kambag'allikka barham bergan dastlabki davlatga aylandi. Hukumat rahbari Si Zinpin Xitoy BMTning 2030-yilgacha kambag'allikka qarshi global kurash dasturining 70 foizida hissasi bor, deb ta'kidladi.

#### 1-jadval: Xitoy Xalq Respublikasining kambag'allik strategiyasini amalga oshirish bosqichlari<sup>[9]</sup>

Bosqichlar	Bajariladigan vazifalar
1-bosqich (1978–1985-yy.)	Dehqonlarga ekin turlarini mustaqil tanlash va yetishtirish imkoniyati berilgan va mahsulotlarni kafolatli narxlarda sotilishi ta'minlagan
2-bosqich (1986–1993-yy.)	332 ta nisbatan rivojlanmagan hududlarda subsidiyalangan qarzlarni dasturi va samarali mehnat uchun imkoniyat dasturi amalga oshirildi hamda davlat budjetidan grantlar ajratildi
3-bosqich (1994–2000-yy.)	Rivojlanishi sust hududlar soni 592 taga oshirilib ularda kambag'al aholining daromadini oshirish, infratuzilmani rivojlantirish va qo'shimcha faoliyatlarni yo'lga qo'yish kabi yordamlar ko'rsatilgan
4-bosqich (2001–2010-yy.)	592 ta hududdagi 150 ming kambag'al qishloqlarda integratsiyalashgan qishloqlarni rivojlantirish, mehnat resurslarini kasbga tayyorlash hamda provinsiyalarda sanoatni rivojlantirish dasturlari amalga oshirildi
5-bosqich (2011–2020-yy.)	Strategiyaning asosiy vazifasi iqtisodiy o'sish orqali kambag'allikni qisqartirish deb belgilandi va unga erishish maqsadida qator dasturlar amalga oshirildi

Bugungi kunda mamlakatdagi kambag'allik darajasi 0,5-1 foizni tashkil etmoqda. Unda ikki ehtiyoj – oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta'minlash, uch kafolat – sifatli o'rta ta'lim, tibbiy xizmatlar va boshpana bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Xitoyning kambag'allikni qisqartirish yo'nalishidagi qadamlari 1978-yildan boshlab 5 bosqichli kambag'allik strategiyasini amalga oshirishni boshladi (1-jadval).

Natijada qishloq xo'jaligi sektorini rivojlantirish, rivojlanishdan ortda qolayotgan provinsiyalarni sanoatlashtirish, qishloqlarning ahamiyatini tubdan o'zgartirish va ularni rivojlantirishga erishildi. Xalqaro kambag'allik chegarasi bo'yicha Xitoy kambag'allik darajasi ko'rsatkichi quyidagi diagrammada keltirilgan (1-rasm).



1-rasm: Xitoy kambag'allik darajasi ko'rsatkichining o'zgarishi<sup>[9]</sup>

Shuningdek, boshqa ba'zi davlatlar masalan, Bangladeshda kambag'allikka barham berish borasida kambag'allarning imkoniyatlarini kengaytirish, tengsizliklarni bartaraf etish va ularga o'zlarini va oilalarini boqish hamda jamiyatlarining barqaror o'sishiga hissa qo'shish imkoniyatlarini berish nuqtayi nazaridan bir qator vazifalar belgilandi. Bu borada taraqqiyot maqsadlarini to'yib ovqatlanmaslik, kasallik, savodsizlik, kambag'allik, ish-sizlik va tengsizlikni bosqichma-bosqich kamaytirish va oxir-oqibat bartaraf etish nuqtayi nazaridan belgilanib, Grameen Bank (mamlakatdagi eng yirik mikrokredit beruvchi) Mikrokredit sxemasi orqali Bangladeshdagi qishloq kredit tizimiga pul kiritdi. The Economist jurnalining ma'lumotlariga ko'ra, mikrokreditlar Bangladeshda umumiy aholining 59 % (qishloqlardagi) kambag'allikni 1991-yilgi 92 %dan 1996 yilga 53 % gacha tushirdi.

Unda 100 AQSH dollaridan kam bo'lgan kichik kreditlar (o'rtacha 60-100 \$) ni tashkil qilib, chorva sotib olish, mayda ekin yoki to'quvchilik kabi kichik biznesni boshlashga alohida e'tibor qaratildi. Mikrokreditlash bo'yicha ko'rsatkichlar foiz stavkasi 16 % ni tashkil qiladi. Har qanday turdagi kreditlar qaytarilishi 98 % dan yuqorini tashkil qilib, bankda qarz undirishdagi muvaffaqiyat sirlari – bank haftalik to'lovlarni olishi, bank qarz oluvchilarning kreditlardan berilgan maqsadda foydalanishini ta'minlashi, bank mutasaddilari kreditlarni berish bo'yicha bergan va'dalarini bajarishiga alohida e'tibor qaratgan. Bularning barchasi bankdagi qarz oluvchilarda egalik tuyg'usini rivojlantirish uchun mo'ljallangan bo'lib, to'lovlarni muntazam ravishda to'lashga erishilgan.

XX asrning 50-yillarida Janubiy Koreya jahonning eng kambag'al mamlakatlaridan biri hisoblanib, kambag'allik darajasi 1965 yilda 40,9 foizga teng bo'lsa, 2020-yilda mazkur ko'rsatkich 15,3 foizni tashkil etgan. Janubiy Koreya kambag'allikni qisqartirish bo'yicha olib borilgan islohotlar quyida keltiriladi (2-jadval).

2-jadval: Janubiy Koreyada 1950–2020-yillarda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha olib borilgan islohotlar va uning natijalari<sup>[10]</sup>

Yer islohoti (1950–1960)	1950-yil mart oyida “Qishloq xo'jaligidagi yerlarni isloh qilish to'g'risida”gi qonunning kuchga kirishi dehqonlarga yerga egalik qilish hamda kambag'allikka qarshi kurashishda imkoniyat yaratdi. Ma'lumotlarga ko'ra, qishloq joylaridagi kambag'allik 1950-yildagi 18 milliondan 1960-yilda 14 milliongacha kamaygan.
Qishloq xo'jaligi va sanoatni eksportga yo'naltirish bosqichi (1960–1967)	Mazkur dasturda asosiy e'tibor kambag'allik darajasi yuqori bo'lgan muammoli va chegaraviy hududlarga qaratildi. Natijada bu davrda kambag'allar soni 14 milliondan 10 millionga kamaygan.
Importni erkinlashtirish siyosati (1967–1971)	Xomashyo va yarimtayyor mahsulotlarini mamlakatga olib kirishda bojlar bekor qilinadi va bir vaqtning o'zida sanoat mahsulotlari eksportiga asoslangan strategiya amalga oshirildi. Bu esa o'z navbatida, aholi daromadlarini oshirib, kambag'allik darajasida yashaydigan aholini 10 milliondan 7 millionga kamayishiga sabab bo'ldi.



Kimyo sanoati va milliy sug'urtani rivojlantirish dasturi (1971–1979)	Dastur 1971-yilda, ya'ni mamlakatda import anchagina erkinlashtirilganidan so'ng boshlanib, uning doirasida avvalgi dasturlarga qaraganda yangicha yondashuvda ish olib borilgan. Ushbu dasturlar natijasida, 1979-yilda kambag'allik darajasi 5 milliongacha kamaygan.
Aholi savodxonligini oshirish orqali kambag'allikni qisqartirish (2000–2020)	Koreyada bolalar kambag'alligi darajasi yuqori bo'lgani sababli, hukumat bolalarni sifatli ta'lim bilan ta'minlashni maqsad qilib oldi.

Bundan tashqari Malayziyaning kambag'allikni qisqartirish yo'nalishidagi ilg'or tajribasini ham o'rganish mumkin. Malayziyada kambag'allikning rasmiy darajasi 1970-yildagi 49 foizdan 2019-yilda 8,4 foizga tushdi.

Malayziyadagi ijtimoiy siyosatning boshqa mamlakatlardan ajratib turadigan ikki xususiyati:

- siyosatning uzoq va doimiy barqarorlik davrdagi qulay sharoitlar tufayli tartibli va bosqichma – bosqich rivojlanishi;
- barcha Malayziyaliklarning farovonligini oshirishga intilayotgan kuchli hukumat va jamoat sektorining doimiy faolligi.

Kambag'allikni qisqartirish dasturlarini amalga oshirish bosqichlari quyidagilar

Yangi iqtisodiy siyosat (YAIS 1971–1990):

1. Irtiqy tafovutni kamaytirish, kambag'allikni tugatish, barcha malayziyaliklar uchun daromadlarni ko'paytirish va ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirish;
2. Iqtisodiy nomutanosiblikni tuzatish uchun jamiyatni qayta qurish.

Milliy rivojlanish siyosati (1991–2000):

1. O'ta kambag'allikni yo'q qilish va kambag'al aholining faol tijorat va sanoat hamjamiyatining zamonaviy sohalaridagi ishtirokini kengaytirish;
2. Xususiy sektorga tayanish hamda inson resurslari salohiyatini oshirish.

Finlandiyaning kambag'allikka qarshi kurashidagi ikkinchi muhim omil, bu gender tengligiga ko'maklashuvchi oilaviy siyosat va mehnat siyosatidir. Ota-onalar uchun imtiyozlar va ayniqsa, davlat maktabgacha ta'lim muassasalarining rivojlanishi, mehnat faoliyatiga ayollarning qatnashishiga ko'maklashishni ta'minladi. Onalarda ham to'liq ish kuni davomida mehnat qilish imkoniyatining paydo bo'lishi, Finlandiyaning o'ziga xos xususiyati bo'lib qoldi. Kam ta'minlangan va bolalari bor oilalar ham, oilada bitta boquvchi o'rniga ikkitasi paydo bo'lganda kambag'allikdan qutulishga muvaffaq bo'ldilar.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, kambag'allikni kamaytirishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirib o'tish o'rinlidir:

- aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, iqtisodiy bilim va ko'nikmalarini yanada kengaytirish;
- aholini kichik biznes va tadbirkorlikka keng jalb qilish, erkin raqobat muhitini yaratish, xususiy mulkchilikni himoya qilish;
- bank tizimidagi islohotlarni jadallashtirish, xususan, imtiyozli kreditlar salmog'ini oshirish;
- sanoat tarmoqlarida kooperatsiyani rivojlantirish va tarmoqning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish yaxlit zanjirini yaratish;
- eksport salohiyatini oshirish, eksportyor korxonalarga ko'maklashish faoliyatini jadallashtirish va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, belgilangan ustuvor yo'nalishlar bo'yicha kompleks choratadbirlarni sifatli va o'z vaqtida amalga oshirilishi natijasida, jahon iqtisodiyotida global inqirozning tobora chuqurlashib borishi sharoitida milliy iqtisodiyotimizni joriy yil yakunlari bo'yicha barqaror o'sishini ta'minlanishiga va keyingi yillarda ham iqtisodiy o'sish sur'atlarini yanada jadallashib borishiga zamin yaratiladi. Bu esa o'z navbatida mamlakatimizda kambag'allikni kamaytirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni ham qamrab oladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Nematova D. O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishning "UMPR" modeli //Zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilmalari transformatsiyasi. – 2024. – T. 1. – №. 1.
2. Sen A.K. Poverty and Famines: An Essay on Entitlement and Deprivation. Oxford: Clarendon Press. 1981.
3. Смит А. Теория нравственных чувств [Текст]. –М.: Республика, -1997. -С. 147.
4. Маркс К. Капитал. Т. 1. [Текст] // МарксК., Энгельс Ф. Соч. 2-е изд., Т. 23. –С. 770, 771-773.
5. Fan S., Cho E. E. Y. Paths out of poverty: International experience //Journal of Integrative Agriculture. – 2021. – Т. 20. – №. 4. – С. 857-867.
6. Moio P., Lehtelä K. M., Mikkilä S. Poverty reduction effects of taxation and benefit policies in Finland, 1993–2013 // European Journal of Social Security. – 2016. – Т. 18. – №. 1. – С. 30-45.
7. Lee J. S., Choi J. K. The effects of income transfers on poverty reduction in people with disabilities in South Korea // Asian Social Work and Policy Review. – 2018. – Т. 12. – №. 1. – С. 29-37.
8. Asadullah M. N., Joseph J., Chin J. The Political Economy of Poverty Reduction in Malaysia //Progress in Development Studies. – 2023. – Т. 23. – №. 2. – С. 127-151.
9. [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org).
10. <https://cyberleninka.ru/article/n/zhanubiy-koreyada-i-tisodiy-sishning-asosiy-omillari>
11. X.Asadov. O'zbekistonda kambag'allik va uni qisqartirish yo'llari. Yangi O'zbekiston gazetasi 110-son, 2020-yil 18-iyun.
12. Ilkka Taipale tahriri ostida. Finlyandiyaning 100 ta ijtimoiy innovatsiyasi (to'plam). Xeykki Xiilamo, Xelsinki universitetining ijtimoiy siyosat professori. Kambag'allik bilan kurash. "Sharq" nashriyot-matbaa AK bosh tahririyati. Toshkent, 2019-yil.
13. Adashalievich, B. M. (2019). Socioeconomic importance of sustainable farming development. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 9(7), 76-82
14. <https://review.uz/oz/post/> – P.P. Хасанов.Ўзбекистонда камбағаллик ва уни қисқартириш йўллари.
15. <https://wfin.kz/novosti/ekonomika/item/30202>
16. <https://www.kommersant.ru/doc/4349503>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 4**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

